



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR



2024- YIL YANVAR – DEKABR
(dastlabki ma'lumot)

Asosiy kapitalga investitsiyalar

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 10 942,8 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 64,3 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 83,0 % yoki 9 082,2 mlrd. so'm investitsiyalar jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 17,0 % yoki 1 860,6 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1 053,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 9 889,1 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi

64,3 %

Jami asosiy kapitalga
investitsiyalar
10 942,8 mlrd. so'm

54,6 %

To'g'ridan-to'g'ri
xorijiy investitsiyalar
5 923,3 mlrd. so'm

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy
investitsiya va kreditlar
1 873,2 mlrd. so'm

64,9 %

Korxona mablag'i
1 525,8 mlrd. so'm

84,2 %

78,7 %

Tijorat banklari kreditlari
va boshqa qarz mablag'lari
232,0 mlrd. so'm

83,3 %

Aholi mablag'lari
334,8 mlrd. so'm

O'zbekiston Respublikasi
kafolati ostida xorijiy kreditlar
116,3 mlrd. so'm

107,4 %

Respublika byudjeti
829,5 mlrd. so'm

128,5 %

755,5 %

Suv ta'minoti va kanalizatsiya
tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi
107,9 mlrd. so'm


Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi, mlrd. so'm



So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, eng katta ko'rsatkich 2023- yilda qayd etilgan bo'lib, 2020- yilga nisbatan 2 martaga o'sgan .


Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da




So'nggi yillardagi investitsiyalarning o'sish sur'atlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2022- yilda eng yuqori o'sish sur'ati qayd etilganini va 135,1 % ga teng bo'lgan. Shundan so'ng o'sish tendensiyasi davom etib kelganini va joriy yilda bu ko'rsatkich 64,3 % bo'lib kamayganini ko'rishimiz mumkin.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, % da




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Sirdaryo viloyatida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, % da



Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari aholi mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 129,2 % ni tashkil etdi.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1 525,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,9 foizini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,1 foiz yoki 334,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 5 923,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,7 % punktga kamayib, 54,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 232,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,1 foizini tashkil etdi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 116,3 mlrd. so'm (1,0 %), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1 873,2 mlrd. so'm (17,2 %), Respublika byudjeti 829,5 mlrd. so'm (7,6 %), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 107,9 mlrd. so'm (1,0 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.



SIRDARYO VILOYATI





Shirin shahri





Yangiyer shahri





Guliston tumani







Oqoltin tumani



Sardoba tumani



Sayxunobod tumani





Sirdaryo tumani




Xovos tumani



Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

Statistik tahlilni o'tkazish maqsadida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha shakllanadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da




Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 5 963,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 54,5 % ni tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 3 956,1 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 36,2 %) va boshqa xarajatlarga 1 023,5 mlrd. so'm (9,3 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida kuzatildi – 61,0 % yoki 848,6 mlrd. so'm.

Asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida mashina va uskuna sotib olishga yo'naltirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Oqoltin tumanida kuzatilib, 71,8 % ni yoki 221,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiylarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan % da




■ Yangi qurilish ■ Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya □ Boshqa yo'nalishlar

Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 7 588,1 mlrd. so'mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 69,3 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1 739,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlash-tirilgan investitsiyalarning 15,9 foizini tashkil etdi. Qolgan 14,8 %, ya'ni 1 614,8 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


SIRDARYO VILOYATIDA IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR

Jami investitsiyalar hajmidagi ulushi



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da





To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 5 923,3 mlrd. so'mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 54,6 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 116,3 mlrd. so'mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etdi.


Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 1 873,2 mlrd. so'mni yoki, 2023-yilga nisbatan 64,9 % ni tashkil etdi.

**6 631,6
mlrd. so'm**
Xorijiy investitsiyalar



**1 281,2
mlrd. so'm**
Xorijiy kreditlar

Yuqori ulushga ega 8 ta investor-mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, jamiga nisbatan % da




Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Sirdaryo viloyati	5 923,3	116,3	1873,2
shaharlar			
Guliston shahri	139,8	54,2	244,8
Shirin shahri	3 304,9	-	-
Yangiyer shahri	542,6	9,4	43,1
tumanlar			
Boyovut tumani	1 118,5	3,0	347,0
Guliston tumani	-	9,4	25,3
Mirzaobod tumani	33,7	-	110,5
Oqoltin tumani	237,3	-	12,6
Sardoba tumani	316,9	0,1	232,1
Sayxunobod tumani	50,6	9,4	227,5
Sirdaryo tumani	113,5	9,4	389,5
Xovos tumani	65,5	21,4	240,8

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichi IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida, Elektr va gaz bilan ta'minlash sohasida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 4 729,9 mlrd. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 59,8 foizini tashkil etdi.

Ishlab chiqarish sanoatida bu ko'rsatkich 2 573,4 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 32,5 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar- joylar, kv.m	Ulardan: qishloq joylardan kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
--	---------------------------	--	------------------------	------------------------

Sirdaryo viloyati

132 463

65 431

-

-

shaharlar

Guliston shahri	56 266	-	-	-
Shirin shahri	823	-	-	-
Yangiyer shahri	5 277	-	-	-

tumanlar

Boyovut tumani	5 430	3 826	-	-
Guliston tumani	4 717	4 717	-	-
Mirzaobod tumani	1 959	1 959	-	-
Oqoltin tumani	1 180	1 180	-	-
Sardoba tumani	3 756	1 635	-	-
Sayxunobod tumani	1 557	1 557	-	-
Sirdaryo tumani	41 075	41 075	-	-
Xovos tumani	10 423	9 482	-	-

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 67 236-70-00 (2020)